

B i r i n c h i q i s m

«DENGIZ IBLISI»

Argentina yozining dim yanvar oqshomi. Osmon to'la yulduz. «Meduza» langar tashlagancha qimir etmay turibdi. Kecha sukunatini buzuvchi to'lqin-ning shovullashi ham, kema abzallarining g'ijirlashi ham eshitilmaydi. Okean bamisoli qattiq uyquga ketganga o'xshaydi.

Kemaning palubasida yarim yalang'och marvarid qidiruvchilar yotishibdi. Jazirama issiq va og'ir mehnat natijasida holsizlangan bu kishilar dam o'tmay u yonboshlaridan-bu yonboshlariga ag'darilar, tinmay pishillar, uyqusirab chin-qirishardi. Ularning qo'l-oyoqlari ravishda uchib-uchib tushadi. Kim biladi deysiz, ehtimol, tushlarida o'zlarining yovuz dushmanlarini — akulani ko'rib qolishgandir. Yozning bu issiq va dim kunlarida ular shu qadar charchashadiki, ovdan keyin hatto qayiqlarni palubaga ko'tarib qo'yishga ham madorlari qolmaydi. Darvoqe, buning hojati ham yo'q edi: havoning avzoyi buzilishidan darak beruvchi hech qanday alomat sezilmasdi. Qayiqlar langar zanjiriga bog'langan holda kechasi bilan suvda turaverardi. Reyalar¹ notekis, kemaning jihozlari durustgina saranjomlanmagan, yig'ishtirilmagan uchburchakli yelkan yengil shabadada bilin-bilinmas silkinadi. Palubaning quyrug'idan tumshu-g'igacha bo'lgan butun sahni chig'anoq uyumlari, yoqutrang ohaktosh qoldiqlari, qidiruv-

¹ *Reyu* — mactada yelkanni tikib qo'yadigan ko'ndalang yog'och.

chilar suv ostiga osilib tushadigan arqon, chig'anoqlar solinadigan bo'z qoplar va bo'sh bochkachalar bilan to'lib-toshgan.

Machta yonida chuchuk suv to'la kattakon bochka turibdi. Uning chetiga temir cho'mich osib qo'yilgan. Bochka tevaragiga to'kilgan suv tun qorong'iligida qora dog' yanglig' ko'zga tashlanadi.

Ahyon-ahyon marvarid qidiruvchilarning goh unisi, goh bunisi o'rnidan turadi-da, uyqu aralash gandiraklab, uxlab yotgan kishilarning oyoq-qo'lini bosib bochkaga tomon yuradi. U ko'zini ham ochmay bir cho'mich suvni ichadi-yu, shu on suv emas, balki o'tkir spirt ichgan kishiday o'zini duch kelgan yerga tashlaydi. Qidiruvchilarni chanqoqlik azoblardi: ertalab ishdan oldin ovqatlanish xavfli — suv ostida kuchli bosim ostida ishlashga to'g'ri keladi, — shuning uchun ham ular uzzukun suvning tagi qorong'ilashguncha och-nahor ishlashar, faqat yotar paytdagina tamaddi qilib olishardi, yemishlari esa nuqul tuzlangan go'sht bo'lardi.

Kechasi vaxtada hindu¹ Baltazar turardi. U «Meduza» kemasining xo'jayini kapitan Pedro Zuritaning ishonchli yordamchisi edi.

Baltazar yoshligida mashhur marvarid qidiruvchi bo'lgan edi. U suv ostida odatdagidan ikki baravar ortiq, ya'ni to'qson va hatto yuz sekundgacha tura olardi.

«Nima sababdan? Chunki u paytlarda qanday qilib o'rgatishni bilishardi, bizni juda yoshligimizdan o'rgata boshlardilar, — deb hikoya qiladi Baltazar yosh marvarid qidiruvchilarga. — Otam meni Xozega shogirdlikka berganida o'n yoshda edim. Uning qo'lida o'n ikki bola ta'lim olardi. Bizga u mana bunday usulda ish o'rgatardi: suvga oq tosh yoki chig'anoq tashlardi-da: «Sho'ng'ib, olib chiq!» deb buyurardi va borgan sari uni chuqurroq joyga tashlardi. Olib chiqsang — olib

¹ Hindular — Amerikada yashovchi aholi.

chiqding, bordi-yu olib chiqolmasang — darra yoki xipchin bilan o'lguday savalab, xuddi kuchukboladay yana suvga otardi. Qaytadan sho'ng'iysan. Bizni shu tariqa sho'ng'ishga o'rgatishgan. Keyin suv ostida uzoq turishga o'rgata boshladi. Kek-saroq, tajribaliroq qidiruvchi suv tagiga tushib, langarga savat yoki to'r bog'lab qo'yardi. Keyin biz sho'ng'ib uni yechib olib chiqardik. Quruq chiqish mumkin emas, Aks holda kaltaklanasan.

Bizni shafqatsiz do'pposlashardi. Hamma ham bunga chidash beravermasdi. Ammo men butun okrugda eng abjir qidiruvchi bo'lib qoldim. Ko'p pul topardim*.

Baltazar keksayib qolgani uchun xatarli bo'lgan marvarid qidiruvchilik kasbi bilan shug'ullanmay qo'ydi. Uning chap oyog'ini akula tishi mayib qilgan, biqinini langar zanjiri jarohatlagan edi. U Buenos-Ayresda kichkina do'kon ochib, marvarid, marjon, chig'anoq va boshqa nodir dengiz toshlari bilan savdo-sotiq qilardi. Ammo qirg'oqda zerikib qolar va tez-tez marvarid oviga chiqib turardi. Sanoatchilar uni qadrlardilar. La Plata ko'rfazi, uning qirg'oqlari va marvarid chig'anoqlari uchraydigan boshqa joylarni hech kim Baltazardek yaxshi bilmasdi. Qidiruvchilar uni hurmat qilardilar. U xo'jayinlarning ham, marvarid qidiruvchilarning ham ko'nglini ola bilardi.

Baltazar yosh qidiruvchilarga o'z kasbining butun sirlarini: nafasni qanday tutib turish kerak, akula hujumini qanday qaytarish kerak, ba'zan esa, xonasi kelganda, xo'jayindan marvaridni qanday yashirib qolish kerak — hammasini o'rgatardi.

Sanoatchilar, kema egalari Baltazarning bir qarashdayoq marvaridni bexato tanlay olishini va xo'jayin foydasiga eng saralarinigina ajratishini yaxshi bilishardi.

Shuning uchun ham sanoatchilar uni yordamchi va maslahatchi sifatida o'zlari bilan bajonudil ovga olib chiqardilar.

Baltazar kichkina bochka ustida bamaylixotir yo'g'on sigara tutatib o'tiribdi. Machtaga o'rnatilgan fonar shu'lasini uning uzunchoq tekis yuzida, ixcham burni va katta-katta chiroyli ko'zlarida jilva qiladi. Baltazarning qovoqlari vazmin yumilar va yana ohista ko'tarilardi. Uni uyqu bosayotgan edi. Ammo ko'zlari yumuq bo'lsa ham, quloqlari sergak. Ular hatto qattiq uyqu vaqtida ham har qanday xavfdan ogoh turadi. Ammo hozir Baltazar uxlayotganlarning faqat uzun-qisqa nafasiyu g'uldirashinigina eshitardi. Qirg'oqdan marvarid mollyuskalarining qo'lansa hidi kelib turibdi, — marvaridlarni osonroq ajratib olish maqsadida ularni qirg'oqda chiritishardi: tirik mollyuskaning chig'anog'ini yorish g'oyat mushkul edi. Bu hid hozir boshqa har qanday kishining ko'nglini aynitgan bo'lardi. Baltazar esa, aksincha, huzar qilib nafas olardi. Darbadar kezuvchilar, marvarid qidiruvchilar va mana shu hid unga erkin dunyo quvonchlarini, dengizning ko'ngilga g'ulg'ula soluvchi xatarlarini eslatardi.

Marvarid ajratib olingandan keyin qolgan yirik-yirik chig'anoqlarni «Meduza»ga keltirishardi. Keyin Zurita ularni tugma va zaponkalar tayyorlaydigan fabrikalarga pullardi.

Baltazarni uyqu yengdi. Holsizlangan barmoqlari orasidan ko'p o'tmay sigara sirg'alib tushib ketdi. Boshi ko'kragiga xam bo'ldi.

Ammo kutilmaganda okean qa'ridan yangragan allaqanday tovush uni uyg'otdi. Sal o'tmay ovoz yaqinroqdan eshitildi. Baltazar ko'zlarini ochdi. Xuddi birov burg'i chalganday, ketidan yoshgina yigit jarangdor tovushdi «Al..» deb qichqirganday bo'ldi. Keyinroq esa ovoz yana ham balandroq yangradi.

Burg'uning ohangdor sadosi paroxodning chinqiroq gudogiga, quvnoq nido esa g'arq bo'layotgan kishining talvasa arlash baqirig'iga sira o'xshamasdi. Bu qandaydir yangi, noma'lum narsa

edi. Baltazar o'rnidan turdi, nazarida bir zumda sergaklashib qolganday tuyuldi. Bortga yaqinlashib okean sahniga diqqat bilan razm soldi. Tirik jon ko'rinmaydi. Jimjitlik. Baltazar palubada cho'zilib yotgan hinduni oyog'i bilan turtib uyg'otdi, u o'rnidan qo'zg'alishi bilan:

— Baqiryapti. Bu o'sha bo'lsa kerak, — dedi pichirlab.

— Eshitmayapman, — deb javob berdi hindugurona¹ past ovozda, cho'kkalagancha atrofga quloq solarkan. Shu payt burg'u sadosi va qichqiriq yana tun sukunatini buzdi.

— A-al..

Gurona bu tovushni eshitishi bilan xuddi boshiga qamchi tushganday engashib oldi.

— Rost, o'shanga o'xshaydi, — dedi u qo'rquvdan tishlarini takillatib.

Boshqalar ham uyg'ondi. Ular zulmat dastidan panoh izlaganday, fonarning xira sarg'ish nuri yoritib turgan yerga to'planishdi. Odamlar bir-birlariga qisilib o'tirib olishdi-da, atrofga diqqat bilan quloq sola boshlashdi. Burg'u ovozi va qichqiriq yana bir marta juda uzoqdan eshitildi-yu, hammayoqqa jimjitlik cho'kdi.

— Xuddi o'zi...

— «Dengiz iblisi», — deb pichirlashdi baliqchilar.

— Bu yerda qolish mumkin emas!

— Akuladan ham yomonroq bu!

— Xo'jayinni chaqirish kerak!

Yalangoyoq kishining qadam tovushi eshitildi. Palubaga esnab, serjun ko'kragini qashilab xo'jayin Pedro Zurita chiqdi. U ko'ylaksiz, egniga faqat bo'z ishton kiyib olgan edi: enlik charm kamarida to'pponcha g'ilofi osilib turibdi. Fonar yorug'ida uning uyquga to'ygan va oftob qoraytirgan yuzi, peshonasiga hurpayib tushib turgan

¹ Gurona — Amerikalik hindularning bir qabilasi (Avtor izohi).

quyuq jingalak sochi, qop-qora qoshlari, uchi tepaga qayrilgan paxmoq mo'ylovi hamda kichkina moshguruch soqoli aniq ko'zga tashlanib turardi.

— Nima gap?

Uning yo'g'on, osoyishta tovushi va dadil harakatlari hindularning joniga biroz ora kirdi.

Ular baravariga chuldirasha ketishdi.

Baltazar qo'lini yuqoriga ko'tarib, odamlarni tinchitdi va:

— Biz anovi... «dengiz iblisi»ning ovozini eshitdik, — dedi.

— Sizlarga shunday tuyulgan! — deb javob berdi Pedro uyqusiragan holda boshini quyi egib.

— Yo'q, tuyulgan yo'q. «A-a» deganini, burg'u ovozini hammamiz eshitdik! — deb baqirishdi baliqchilar.

Baltazar boyagi ishora bilan g'ala-g'ovurni bosgach, yana o'zi so'z boshladi:

— O'z qulog'im bilan eshitdim. Faqat «iblis»gina ana shunday qila oladi. Dengizda boshqa hech kim burg'u chalmaydi ham, qichqirmaydi ham. Bu yerdan darhol jo'nash kerak.

— Cho'pchak! — deb javob berdi Pedro Zurita haligiday beparvolik bilan. U hali chirib bitmagan sassiq chig'anoqlarni qirg'oqdan kemaga tashib keltirishni istamasdi. Ammo hindularni ko'ndirishning iloji bo'lmadi. Ular bezovtalanishar, qo'llarini paxsa qilib baqirishar, agar Zurita langarni ko'tarmasa, ertagayoq qirg'oqqa chiqib, Buenos-Ayresga yayov jo'nayajaklarini aytib uni qo'rqi-tishardi.

— «Dengiz iblisi»ni ham jin ursin, senlarni ham! Bo'pti. Ertalab langarni ko'taramiz, — dedi kapitan va allanimalar deya g'uldirab, o'z kayutasi tomon ketdi.

Uning qaytib uyqusi kelmadi. Chiroqni yoqdi-da, sigara tutatib torgina kayutaning u burchidan-bu burchiga yura boshladi. U yaqindan beri shu

atrofda paydo bo'lib, baliqchilarning va qirg'oqda yashovchi aholining yuragiga g'ulg'ula solgan noma'lum mavjudot haqida o'ylardi.

Hali hech kim u maxluqni ko'rgan emas, ammo u bir necha marta o'zidan darak berdi. U haqda uydirma ham to'qilgandi. Dengizchilar bunday mish-mishlarni maxluqning o'zi eshitib qolishidan qo'rqib, o'zaro pichirlashib gaplashardilar.

Ba'zilarga u zarar yetkazar, ayrim kishilarga esa kutilmaganda yordam ko'rsatardi. «U dengiz xudosi, — deb gapirishardi kekxa hindular, — yer yuzida adolat o'rnatish uchun har ming yilda bir marta dengiz ostidan chiqadi».

Katolik ruhoniylari soddadil panlarni, bu narsa «dengiz iblisi», deb ishontirardi. Odamlarning muqaddas, katolik cherkoviga e'tiqodi kamaygani kasofatidan u paydo bo'lgan emish.

Og'izdan-og'izga o'tib yurgan bu gaplar Buenos-Ayresgacha yetib bordi. Bir necha haftagacha «dengiz iblisi» mahalliy gazetalarning xronikachi va felyetonchilariga asosiy tema bo'lib qoldi. Mabodo noma'lum sharoitda odam tashiydigan va baliq ovlovchi kemalar g'arq bo'lsa yoki baliq tutadigan to'rlar qirqilib qolsa yoxud tutilgan baliq tasodifan gumdon bo'lsa — bularning barini «dengiz iblisi»dan ko'rishardi. Ammo ayrim kishilar «iblis»ning ba'zan qayiqqa baliq tashlagani va bir kuni hatto g'arq bo'layotgan kishini qutqargani haqida gapirishardi.

Cho'kib ketishiga sal qolgan bir odmning jon kuydirib aytishicha, u endi suvga botayotganda kimdir pastdan uning orqasiga kaftini qo'ygan va shu alpozda uni suyab qirg'oqqacha suzib borib, qum ustida qoldirgan-da, o'zi bir zumda to'lqinlar orasida g'oyib bo'lgan.

Ammo qizig'i shunda ediki, «iblis»ning o'zini hech kim ko'rmagandi. Bu sirli mavjudotning tashqi qiyofasini ham hech kim aytib berolmasdi. Albatta, karomat qiluvchilar ham topildi — ular

«iblis»ni shoxdor, echkisoqol, yo'lbars oyoqli, baliqnikiga o'xshash dumli qilib tasvirlashar yoki odamlarnikidek oyoqli juda ulkan shoxdor baqaga o'xshatishardi.

Buenos-Ayresning hukumat amaldorlari dastlab bu latifalarni va gazeta xabarlarini bema'ni uydirma hisoblab, e'tibor berishmadi.

Ammo bezovtalik, ayniqsa baliqchilar orasidagi tashvish kun sayin kuchayib borardi. Ko'pgina baliqchilarning dengizga chiqishga yuragi betlamay qoldi. Ovning mazasi qochishi bilan aholi o'rtasida baliq tanqisligi sezila boshladi. Shundan keyin mahalliy ma'murlar bu mashmashani tekshirishga qaror qilishdi. «Qirg'oqdagi aholi o'rtasida g'ulg'ula va vahima tug'dirayotgan noma'lum maxluq qo'lga olinsin», degan buyruq bilan qirg'oq soqchiligi politsiyasining bir necha kateri hamda motorli qayiqlari safarbar qilindi.

Politsiya La-Plata ko'rfazini va qirg'oq atrofini ikki hafta titi-pit qilib, pirovardida bir necha hinduni yolg'on uydirmalarning ashaddiy targ'ibotchilari va bezovtalik urug'ini sepuvchilar sifatida qo'lga oldi. Ammo «iblis» hamon tutqich bermasdi.

Politsiya boshlig'i hech qanday «iblis»ning yo'qligi, bu gaplarning hammasi qo'lga olingan nodon kishilar tomonidan to'qib chiqarilganligi va ular tegishli jazolarini tortajaklari haqida rasmiy axborot e'lon qildi hamda baliqchilarni har turli mish-mishlarga ishonmaslikka va bemalol ov qilaverishga da'vat etdi.

Bu xabar birmuncha vaqtgacha o'z ta'sirini ko'rsatdi. Lekin «iblis»ning qaltis hazili davom etaverdi.

Bir kuni kechasi qirg'oqdan ancha uzoqda tunab qolgan baliqchilar o'z qayiqlarida paydo bo'lib qolgan echki bolasining ma'rashidan uyg'onib ketdilar. Boshqa qayiqdagi baliqchilarning to'rlari suvdan qirqilib chiqdi.

«Iblis»ning yana daragini eshitib sevingan jurnalistlar endi olimlarning fikrini kutishardi.

Olimlar ham bu masalaga qiziq boshlagan edilar.

Ular, dengizda fanga ma'lum bo'lmagan va faqat insonga xos harakatlar qiluvchi hech qanday maxluq yo'q, deb hisoblashardi. «Mabodo, — deb yozishardi olimlar, — okeanning kam o'rganilgan chuqurliklarida bunday maxluq paydo bo'lgan bo'lsa, ehtimol». Ammo ular noma'lum maxluqning insongagina qobil bo'lgan harakatlar qilishiga hanuz ishonishmasdi. Olimlar ham, dengiz politsiyasining boshlig'i ham bularning hammasi biror-ta hazilkash odamning nayrangi deb o'ylashardi.

Lekin olimlarning hammasi ham shu fikrda emas edi.

Ba'zi olimlar dengiz parisi, dengiz iblisi, dengiz rohibi va dengiz yepiskopi haqida yozgan mashhur nemis naturalisti Konrad Gesnerga¹ asoslanishardi.

«Xullas, qadimgi olimlar va O'rta asr olimlari bayon etgan fikrlarning ko'pi, garchi yangi fan ularni tan olmasa-da, to'g'ri bo'lib chiqdi. Ollohning yaratgan narsalari behisob va binobarin, xulosa chiqarishda xususan biz olimlar ko'proq odob saqlashimiz va ehtiyot bo'lishimiz kerak», deb yozishardi ba'zi kekxa olimlar.

To'g'risi, bu odobli va ehtiyotkor kishilarni olim deyish ham qiyin edi. Ular fanga qaraganda mo'jizaga ko'proq ishonishardi, ularning leksiyalari ham quruq va'zxonlikdan nariga o'tmasdi.

Nihoyat bahsni biryoqlik qilish maqsadida ilmiy ekspeditsiya jo'natishga qaror qilindi.

Ekspeditsiya a'zolari «iblis» bilan uchrashish baxtiga muyassar bo'lolmadilar. Ammo ular «noma'lum shaxs»ning ko'pgina yangi qilg'iliklaridan voqif bo'lishdi (kekxa olimlar «shaxs» so'zini

¹Konrad Gesner — XVI asrda o'tgan yirik nemis olimi. Uning «Hayvonlar haqida kitobi» naturalistlar o'rtasida favqulodda kuchli e'tibor qozongan.

«maxluq» so'zi bilan almashtirishni talab qilishardi).

Ekspeditsiya a'zolari gazetada e'lon qilingan o'z dokladlarida quyidagilarni yozishgandi:

1. Qumloq sohilning bir necha joyida inson oyog'ining izi aniqlandi. Izlar dengizdan chiqib, yana dengiz tomon ketgan. Ammo bu izlar qayiqda qirg'oqqa kelgan odamning izi bo'lishi mumkin.

2. Biz ko'zdan kechirgan to'rlar darhaqiqat o'tkir narsa bilan qirqilgan. Lekin bu to'rlar suv ostidagi qirrali qoyalarga yoki halokatga uchragan kemalarning temir qismlariga ilinib, qirqilgan bo'lsa kerak.

3. O'z ko'zi bilan ko'rgan kishilarning aytishicha, to'lqin qirg'oqning ancha ichkarisiga ulotirib tishlagan delfinni¹ kechasi kimdir yana dengizga olib ketgan, buning ustiga qumda rahmdil baliqchi delfinni suvga olib borib tashlaganga o'xshaydi.

Ma'lumki, delfinlar baliq ovlab yurib, baliqchilarga ko'maklashadi, ya'ni baliqlarni sayoz joylarga haydashadi. Baliqchilar ham tez-tez delfinlarni kulfatdan qutqarib turadilar. Panja izlari odamning oyoq barmoqlariniki, ko'rinishi oyoqning panjasiga o'xshaydi.

4. Echki bolasi qayiqda keltirilgan, buni biror hazilkash qilgan bo'lishi mumkin.

Olimlar «iblis» qoldirgan izlarning kelib chiqishini izohlovchi boshqa yana bir qancha sabablarni topishdi.

Ular dengiz hayvonlarining birortasi ham bunaqa murakkab ishlarni qilishi mumkin emas degan xulosaga keldilar.

Ammo bu sharhlar hammani ham qoniqtira olmadi. Hatto olimlarning orasida mazkur dalillarga shubha bilan qaraydigan kishilar ham topildi. Eng chaqqon va abjir hazilkash ham shu qadar

¹ Delfin — sut emizuvchi dengiz hayvoni.

uzoq vaqtgacha odamlarning ko'ziga tashlanmay shuncha «ish» ko'rsatishi mumkinmi? Eng muhimi, olimlar o'z dokladida lom-mim demagan narsa shu ediki, «iblis» qisqa vaqt ichida bir-biridan juda uzoq turli yerda o'z jasoratini namoyish qilgan. «Iblis» yo quloq eshitmagan darajada tez suzgan, yoki uning qandaydir maxsus moslamasi bo'lgan, yoxud «iblis» bir emas, bir nechta. Bu holda bu hazillar battarroq muammo va xatarli bo'lib chiqadi.

Pedro Zurita kayutada u yoqdan-bu yoqqa yurib, bu jumboq o'ylarga g'arq bo'lib ketganidan tong otganini va illyuminator oynasiga qizg'ish nurlar tushganini ham sezmay qoldi. U chiroqni o'chirdi-da, yuvinishga tutindi.

Zurita boshiga issiq suv quya turib, palubadan kelgan vahimali baqiriqni eshitib qoldi. Chala-chulpa yuvindi-da, shoshib tepaga ko'tirildi.

Bellariga bo'z mato tutib olgan yalang'och qidiruvchilar bort oldiga to'planishib, qo'llarini silkitishar va palapartish qichqirishardi. Pedro pastga qarab, kechasi suvda qoldirilgan qayiqlar yechilganini ko'rdim. Tungi shamol ularni ochiq okeanning ancha ichkarisiga surib ketgan edi. Tong shabodasi esa endi ularni sekin-sekin qirg'oq tomon haydardi. Har tarafga sochilib ketgan eshkaklar suv yuzida qalqib, ko'rfaz bo'ylab suzib borardi.

Zurita qidiruvchilarga qayiqlarni olib kelishni buyurdi. Ammo hech kim polubadan jilishga jur'at etolmasdi. Zurita buyruqni yana takrorladi.

— «Iblis»ning changaliga o'zing tushaver, — dedi kimdir olomon orasidan.

Zurita to'pponcha g'ilofiga qo'l cho'zdi. Qidiruvchilar tisarilishib, machta yoniga g'uj bo'lib olishdi. Agar Baltazar oraga tushmaganda keskin to'qnashuv yuz berishi muqarrar edi.

— Araukan' hech narsadan qo'rqmaydi, — dedi u. — Akula yamlay olmagan meni, «iblis» ham

¹Araukanlar — Amerika hindularining bir qabilasi.

yeyolmaydi. — Shunday deb u qo'llarini boshi ustida juftladi-da, o'zini suvga otdi va shitob bilan kemaga yaqinroq turgan qayiq tomon suza ketdi. Boshqa qidiruvchilar bortga yaqinlashib, qo'rquv ichida Baltazarni kuzata boshladilar. Keksaligi va oyog'ining mayibligiga qaramay, u juda yaxshi suzar edi. Hindu bir zumda qayiqqa yetib bordida, shu atrofda suzib yurgan eshkaklardan birini tutib, ko'z ochib-yumguncha qayiqqa chiqib oldi.

— Arqon pichoq bilan qirqilgan, — deb baqirdi u, — juda ham yaxshi qirqilgan! Olmosday o'tkir pichoqqa o'xshaydi.

Baltazarga hech balo bo'lmaganini ko'rib, bir necha baliqchi o'zini birin-ketin suvga tashlaydi.

DELFINGA MINIB

Quyosh endigina yuz ko'rsatgan bo'lishiga qaramay qattiq qizdirardi. Feruza osmonda bir parcha ham bulut ko'rinmaydi, okean tinch. «Meduza» Buenos-Ayresdan yigirma kilometr chamasi janubroqda suzib borardi. Baltazarning maslahatiga ko'ra, qirg'og'ida suvdan ikki pog'ona bo'lib ko'tarilgan qoyali kichik bir ko'rfazda langar tashlashdi.

Bir zumda qayiqlar ko'rfaz bo'ylab taralib ketdi. Har qayiqda odatdagicha ikkitadan odam bor edi: biri sho'ng'iydi, ikkinchisi uni tortib turadi. Keyin almashadilar.

Qayiqlardan biri qirg'oq yaqiniga borib qoldi. Sho'ng'uvchi arqonning bir uchiga bog'langan ohaktoshni oyoqlari orasiga oldi-da, suv ostiga tushib ketdi.

Suv iliq va shu qadar tiniq ediki, pastdagi har bir tosh ko'zga aniq tashlanib turardi. Qirg'oq yaqinidagi suv tubidan marjonlar — suvosti bog'larining mangu qotib qolgan butalari bo'y cho'zgan. Oltin va kumushday tovlanuvchi mayda baliqlar butalararo sayr qilib yuribdi.

Sho'ng'uvchi suv ostiga tushdi-da, chaqqonlik bilan chig'anoqlarni terib, kamariga osib olgan xaltaga sola boshladi. Sherigi hindu-gurona esa arqonning bir uchini ushlagancha qayiqdan suvga termulib o'tirardi.

To'satdan u sho'ng'uvchining jonholatda qaddini rostlab, arqonga yopishganini ko'rib qoldi. U arqonni shu qadar siltab tortan ediki, gurona suvga ag'darilib tushayozdi. Qayiq lapanglab ketdi. Hindu-gurona shosha-pisha hamrohini yuqoriga tortib, qayiqqa chiqishiga yordamlashdi. Sho'ng'uvchi og'ini katta ochib, arang nafas olar, ko'zlari olayib, qoramtir yuzi kulrang tusga kirgan edi.

— Akulami?

Ammo sho'ng'uvchi lom-mim ham demay, qayiq ichiga uzala tushib oldi.

Dengiz tagida nima shunchalik uning o'takasini yordiykin? Gurona egilib suv ostiga razm sola boshladi. Darhaqiqat, bir gap bo'lganga o'xshaydi. Mayda baliqchalar kalxatni ko'rgan qushday o'zlarini quyuk butazor panasiga urardi.

Shu payt hindu-guronaning ko'zi suv osti qoyasining ortida paydo bo'lgan to'qqizil tutunga o'xshash bir narsaga tushdi. Tutun suvni pushti rangga bo'yab, asta-sekin tevarak-atrofga tarqalardi. Hayal o'tmay shu yerning o'zida qop-qora narsa ko'rindi. U akulaning tanasi edi. Tana ohista qayrilib, qoya panasiga o'tib ketdi. Suv ostida to'zg'igan qizil tutun faqat qon bo'lishi mumkin. Nima gap o'zi? Gurona sherigiga qaradi, ammo u chalqancha tushib, og'zini lang ochgan, osmonga befarq termilgan holda qimir etmay yotardi. Hindu o'zining tasodifan og'rib qolgan o'rtog'ini tezroq «Meduza» bortiga eltish uchun eshkakka zo'r berdi.

Nihoyat sho'ng'uvchi o'ziga keldi, ammo xuddi tili tanglayiga yopishib qolganday, faqat g'uldirar, boshini chayqar va lablarini cho'chchaytirib, nuqul harsillardi.

Kemada qolgan qidiruvchilar sho'ng'uvchini o'rab olib, undan biror sado chiqishini sabrsizlik bilan kutishardi.

— Gapir! — deb baqirdi nihoyat toqati toq bo'lgan yoshgina hindu uni turtib. — Gapir, yuraging yorilgur.

Sho'ng'uvchi boshini sarak-sarak qildi-da, xasta tovush bilan:

— Ko'rdim haligini... dengiz «iblisi»ni, — dedi.

— Yo'g'-e, rostdanmi?

— Gapir, gapirsang-chi! — deb qichqirishdi qidiruvchilar betoqat bo'lib.

— Bir vaqt qarasam — akula. To'ppa-to'g'ri menga qarab suzib kelyapti. O'ldim endi deb qo'ydim! Kattakon, qop-qora, yeyishga chog'lanib og'zini ham ochdi... Qarasam — haligi ham suzib kelyapti...

— Boshqasimi?

— «Iblis»!

— Qanaqa ekan? Boshi bormi?

— Boshimi? Bor edi shekilli. Ko'zlari piyoladay-piyoladay keladi...

— Ko'zi bo'lsa, demak, boshi ham bor, — dedi ishonch bilan hindu yigit. — Axir ko'z degan narsa boshda bo'ladi-da. Qo'li-chi? Qo'li bor ekanmi?

— Qo'llari xuddi baqanikiga o'xshaydi. Bar-moqlari uzun-uzun, ko'm-ko'k va pardali. O'zi baliqday yaltiroq, tangacha bilan qoplangan. Akulaga yaqinlashdi-yu, qo'lida bir narsa «yarq» etib ketdi. Akulaning qornidan tizillab qon otilib chiqsa bo'ladimi...

— Oyoqlari qanaqa? — deb so'radi qidiruvchilardan biri.

— Oyoqlarimi? — dedi sho'ng'uvchi eslashga urinib. — Oyog'i butunlay yo'q. Katta dumi bor. Dumining uchida esa ikkita ilon.

— Qaysi biridan ko'proq qo'rqding — akuladanmi yoki «iblis»danmi?

— «Iblis»dan, — deb javob berdi u ikkilanmay.
— Garchi meni qutqargan bo'lsa ham «iblis»dan qo'rqdim. U o'shaning o'zi...

— Ha, xuddi o'zi.

— «Dengiz iblisi», — dedi hindu.

— Bechoralarga yordam beruvchi dengiz xudosi, — deb tuzatdi kekxa hindu.

Bu xabar bir zumda ko'rfaz ichida suzib yurgan qayiq-larga borib yetdi. Qidiruvchilar shoshilinch ravishda kemaga qarab talpinib, apil-tapil qayiq-larni bortga chiqara boshladilar.

Hamma «dengiz iblisi» qutqargan sho'ng'uvchini o'rab olib, uni qayta-qayta gapirishga majbur qilardi. Sho'ng'uvchi ham yangi-yangi tafsilotlari bilan hikoyasini takror-lardi. U maxlqning burnidan qip-qizil olov chiqqanini, tishlari o'tkir va barmoq kabi uzunligini esladi. Uning quloqlari qimirlaganmish, yonida suzgichlari, orqasida esa eshakday dumi bor emish.

Beligacha qip-yalang'och, oq ishton va boshiga soyavoni keng poxol shlyapa kiyib olgan Pedro Zurita sarpoychan tufilisini sudrab, palubada u yoq-dan-bu yoqqa yurarkan, gapga diqqat bilan quloq solardi.

Sho'ng'uvchi hikoyaga berilgan sari Pedroning, bularning hammasi akulani ko'rib o'takasi yorilgan qidiruvchining uydirmalari, degan ishonchi mustahkamlana bordi.

«Tag'in kim biladi, ehtimol hammasi ham uydirma emasdir. Kimdir akulaning qornini yorgan: ko'rfazdagi suv qizarib ketdi-ku, axir. Hindu yolg'on gapiryapti, ammo uning gapida haqiqat ham bo'lsa kerak. Shamol bo'lmasa, daraxtning bargi qimirlarmidi. G'alati mojaro chiqdi-da, jin urgur!»

Kutilmaganda qoya ortidan yangragan burg'i sadosi Zuritaning xayollarini to'zg'itib yubordi.

Bu tovush «Meduza» ekipajini chaqmoq urganday hangu-mang qilib qo'ydi. Gap-so'z to'xtab, bir

zumda hammaning yuzi dokadek oqarib ketdi. Qidiruvchilar dahshat ichida burg'u ovozi kelgan qoyaga qarab baqrayib qolishgan edi.

Qoyadan sal narida, okean yuzida delfinlar galasi paydo bo'ldi. Delfinlardan biri to'dadan ayrilib, go'yo burg'i ovoziga javob berganday, qatiq pishqirdi-da, shitob bilan qoyaning orqasiga suzib o'tib ketdi. Bir necha daqiqa betoqatlik bilan o'tdi. To'satdan qoyaning orqasidan delfin ko'rindi. Uning ustida sho'ng'uvchi hozirgina hikoya qilgan g'alati maxluq — «iblis» xuddi otga minib olganday o'tirardi. Gavdasi odamnikiday, quyosh nurida charaqlab turgan katta-katta ko'zlari avtomobil chiroqlariga o'xshaydi, terisi kumushday yaltiroq, qo'llari baqanikidan farq qilmaydi — ko'kimtir, uzun barmoqlari parda bilan qoplangan. Oyoqlarining tizzasidan pasti suvda turganidan ular dum bilan tugaydimi yoki rosmana odamnikiga o'xshaganmi — bilib bo'lmasdi. «Iblis» qo'lida uzun burama chig'anoq ushlab turardi. U yana bir marta ana shu chig'anoqni chaldi-da, keyin xandon tashlab kuldi va kutilmaganda sof ispan tilida:

— Tezroq, Liding', olg'al — deb baqirdi va baqanikiga o'xshagan qo'llari bilan delfinning yaltiroq yelkasiga shapatilab, oyoqlari bilan uning biqiniga niqtay boshladi. Delfin ham yo'rg'a otday tezligini oshirdi.

Qidiruvchilar beixtiyor qichqirib yuborishdi.

G'alati chavandoz qayrilib qaradi. Odamlarni ko'rib, kaltakesak tezligida delfin ustidan sirg'alub tushdi-da, o'zini uning panasiga oldi. Delfin orqasidan hayvonning yelkasiga shapatilayotgan ko'm-ko'k qo'l ko'rinib turardi. Itoatkor delfin o'z suvorisi bilan okean qa'riga sho'ng'ib ketdi.

Ikki g'aroyib do'st suv ostida yarim doira yasab, qoya ortiga yashirinishdi...

¹ Liding — amerikancha «yetakchi». (Avtor.)

Favqulodda bu hodisa bir minutlar orasida yuz bergan bo'lsa ham uning tomoshabinlari ancha mahalgacha es-hushlarini yig'a olmadilar.

Qidiruvchilar baqirishar, boshlarini changallab palubada u yoqdan-bu yoqqa yugurishardi. Hindular cho'kkalagancha dengiz xudosidan shafqat so'rab, yolvorishga tushishdi. Meksikalik yoshgina bir yigit qo'rqqanidan grat-machtaga chiqib dod sola boshladi. Negrlar o'zlarini tagxonaga otib, burchakka qisilib olishdi.

Ov haqida o'ylaydigan fursat emas edi. Pedro bilan Baltazar zo'r-bazo'r kemani tartibga keltirishdi. «Meduza» langar ko'tarib, shimolga qarab yo'l oldi.

ZURITANING MUVAFFAQIYATSIZLIGI

«Meduza» kapitani ro'y bergan voqeani puxta o'ylab ko'rish niyatida o'z kayutasiga tushdi.

— Jinni bo'lib qolish hech gap emas! — dedi Zurita boshiga issiq suv quyarkan. — Dengiz maxluqi sof Kastiliya shevasida gapirsa-ya! Nima gap o'zi? Tilsimotmi bu? Aqldan ozdikmikan? Lekin butun komanda birdaniga aqldan ozib qolmagandir. Hatto ikki kishi bir xil tush ko'rishi mumkin emas. Ammo dengiz «iblis»ini hammamiz ko'rdik. Bu shubhasiz. Demak, u qanchalik aqlga sig'maydigan narsa bo'lishiga qaramay, bor ekan-da. — Zurita boshiga yana suv quydi va shamol-lamoq uchun illyuminatordan boshini chiqardi. — Har nima bo'lganda ham, — deb davom etdi u bir-oz nafasini rostlab olgach, — bu sirli mavjudot inson aqli bilan bunyodga kelgan va o'z harakatlari o'ylab, mulohaza bilan qiladi. U, aftidan, suv ostida ham, quruqlikda ham o'zini bir xilda yaxshi his etadiganga o'xshaydi. Ispancha gaplashganini o'z qulog'imiz bilan eshitdik, — demak, u bilan umumiy til topish ham mumkin. To'xta, agar... agar uni tutib olib, qo'lga o'rgatsak va mar-

varid terishga majbur qilsak-chi? Suv ostida yashay oladigan bitta baqa butun bir qidiruvchilar artelining o'rnini bosadi. Ana foyda — mana foyda! Har bir qidiruvchiga istasang-istamasang ovning to'rtidan bir qismini berishing kerak. Baqaga esa hech qancha ketmaydi. Axir shunda ham hash-pash deguncha yuz ming, million pezetni urib qo'yish hech gap emas!

Zurita xayoliga erk berdi. Shu paytgacha u bo'yish umidi bilan yashar, hali hech kim bormagan joylarga borib, marvarid chig'anoqlarini qidirardi. Fors qo'ltig'i, Seylonning g'arbiy sohili, Qizil dengiz, Avstraliya atroflari — bu sermarvarid yerlar juda uzoq, bundan tashqari, u yerlarda odamlar ko'pdan beri marvarid qidiradi. Meksika yoki Kaliforniya ko'rfazlari, Foma va Margarita orollariga yo'l olinsa qanday bo'larkin? Eng asl amerika marvaridlari terilayotgan Venesuela sohillariga Zurita borolmasdi. Chunki uning kemasi ancha eskirib qolgan, bundan tashqari, qidiruvchilar ham yetishmas, — qisqasi, ishni tamomila qaytadan yo'lga solish lozim edi. Buning uchun esa Zuritaning qo'li kaltalik qilar edi. Ana shu sabablar bilan u Argentina qirg'oqlaridan nariga jilolmasdi. Endi-chil! Endi u bir yilning ichida boylikka ko'milib ketishi mumkin, faqat «dengiz iblisi»ni qo'lga tushirsa kifoya.

U butun Argentinada, ehtimol butun Amerikada eng boy kishi bo'lib qoladi. Pul uni hokimiyat tepasiga olib chiqadi. Pedro Zuritaning nomi tillarda doston bo'ladi. Ammo juda ehtiyot bo'lish kerak. Eng muhimi — sirni pinhon tutish zarur.

Zurita palubaga ko'tarilib, butun ekipajni bir yerga to'pladi.

— «Dengiz iblisi» haqida gap tarqatgan kishilarning holi nima bo'lganini bilasizlarmi? — dedi u. — Ularning hammasini politsiya qo'lga olib, qamoqqa tiqib qo'ydi. Sizlarni ogohlantirib qo'yishim kerak: agar birortangiz «dengiz iblisi»ni

ko'rganingiz haqida birovga og'iz ochsangiz — sho'rimga sho'rva to'kildi, deyavering. To'ppa-to'g'ri qamoqqa olib ketishadi. Eshityapsizlarmi? Shuning uchun joningizdan umidingiz bo'lsa «iblis» haqida valaqlab yurmang.

«Bularning gapiga baribir hech kim ishonmaydi: o'ziyam xuddi cho'pchakka o'xshaydi-da», — deb dilidan o'tkazdi Zurita va kayutasiga yolg'iz Baltazarni chaqirib, unga o'z rejasini gapirib berdi.

Baltazar xo'jayinning gapiga diqqat bilan quloq soldi, biroz o'ylanib olib, javob berdi:

— Juda yaxshi. «Dengiz iblisi» yuzlab qidiruvchilarning o'rnini bosadi. «Iblis»ni xizmatkor qilib olsak ko'p soz ish bo'lardi-da. Lekin qanday qilib tutish mumkin uni?

— To'r bilan, — deb javob berdi Zurita.

— Akulaning qornini yorganday, to'rni ham qirqadi-tashlaydi-da.

— Sim to'r buyurtirishimiz mumkin.

— Kim uni tutadi? Sho'ng'uvchilaringiz «iblis»ning nomini eshitgandayoq qaltirab qoladi. Bir qopdan tilla berganingda ham ko'nmaydi ular.

— O'zing-chi, Baltazar?

Hindu yelkasini qisdi.

— Umrimda «dengiz iblisi» ovlamaganman. Uni poylash, menimcha, oson emas, o'ldirish esa, agar u go'sht bilan suyakdan yasalgan bo'lsa, mumkin. Ammo sizga tirik «iblis» kerak-da.

— Undan qo'rqmaysanmi, Baltazar? «Dengiz iblisi» haqida qanday fikrdasan?

— Dengiz ustida uchadigan qoplon va daraxtga tirmashib chiqadigan akula haqida nimalar deyshim mumkin? Noma'lum hayvon dahshatliroq. Ammo men qo'rqinchli hayvonlarni ovlashni yaxshi ko'raman.

— Seni juda xursand qilaman, — dedi Zurita Baltazarning qo'lini qisib va o'z rejalarini tushuntirishda davom etdi: — Bu ishda qancha km

kishi ishtirok etsa, shuncha yaxshi. Sen araukanlarning hammasi bilan gaplash. Ular jasur va uddaburro kishilar. Besh kishi olsang kifoya. Agar o'zimiznikilar ko'nishmasa chetdan top. «Iblis» qirg'oqda tutiladi. Eng oldin uning uyasi qayerdaligini aniqlash kerak. Ana o'shanda uni to'rga tushirish qulay bo'ladi.

Zurita bilan Baltazar tezda ishga kirishib ketishdi. Zuritaning zakazi bilan og'zi ochiq katon bochkaga o'xshagan sim kajava tayyorlandi.

«Iblis» o'rgumchak uyasiga tushganday o'ralib qolsin uchun Zurita kajavaning ichiga kanop to'r joylab qo'ydi. Qidiruvchilarni bo'shatishdi. «Iblis» ovida qatnashish uchun Baltazar «Meduza» ekipajidan faqat ikki hindu-araukanni ko'ndirishga muvaffaq bo'ldi. Qolgan uch kishini u Buenos Ayresdan yollab keldi.

«Iblis»ni qidirishni «Meduza» ekipaji birinchi marta u ko'ringan ko'rfazdan ushlashga qaror qildi. «Iblis»da shubha tug'ilmasligi uchun kema uncha katta bo'lmagan ko'rfazdan bir necha kilometr narida langar tashladi. Zurita va uning hamrohlari o'zlarini baliq dardida yurgan kishilar qilib ko'rsatish maqsadida ahyon-ahyon baliq ovlab qo'yishardi. Ayni vaqtda ulardan uchitasi navbatma-navbat qirg'oqdagi toshlar ortiga bekinib, diqqat bilan ko'rfaz suvlarini ko'zdan kechirardi.

Yo'lga chiqqanlariga ikki hafta bo'layozsa ham, «iblis»dan nomu nishon yo'q edi.

Baltazar qirg'oqda yashovchi aholi va fermer hindular bilan aloqa bog'lab, ularga arzon-garovga baliq sotar, u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirib, gapni sekin «dengiz iblisi»ga burardi. Hamsuhbatlar ularning «iblis»ni qidirish joyini to'g'ri tanlashganini aytishardi: ko'rfazga yaqin yerda yashovchi ko'pgina hindular burg'i ovozi eshitgan va qum ustida oyoq izini ko'rganmishlar. Ularning ishontirishicha, «iblis»ning izi odam

iziga o'xshash-u, lekin barmoqlari anchagina uzun emish. Ba'zi paytlari hindular qumda gavda iziga duch kelganlar, — aftidan u qirg'oqqa chiqib yotgan bo'lsa kerak.

«Iblis» qirg'oq aholisiga zarar yetkazmas, shuning uchun ham ular ahyon-ahyon paydo bo'lib qoladigan bunday izlarga e'tibor bermasdi. Ammo «iblis»ning o'zini hech kim ko'rdim demasdi.

«Meduza» baliq ovlovchi kema qiyofasida ikki hafta ko'rfazda turdi. Ikki haftagacha Zurita, Baltazar va yollangan hindular okean sathidan ko'z uzmadilar, lekin «dengiz iblisi» qorasini ko'rsatmadi. Zurita bezovtalana boshladi. U betoqat va ziqna edi. O'tgan har bir kun katta pulga tushar, «iblis»dan esa hamon darak yo'q edi. Pedro endi shubhaga tushib qoldi. Agar «iblis» mo'jizaviy narsa bo'lsa, uni hech qanaqa to'r bilan tutib bo'lmaydi. Bundan tashqari, unaqa shaytonga tegishish ham xatarli,— Zuritaning yuragiga g'ul-g'ula tushdi. Har ehtimolga qarshi «Meduza»ga ruhoniyni taklif qilish kerakmikin? Yana xarajat... yoki, ehtimol, «dengiz iblisi» hech qanaqa iblis bo'lmay, odamlarni qo'rqitish uchun iblis qiyofasiga kirib olgan, suzishga usta biror hazilkashdir? Yo delfinmikin? Ammo delfinni boshqa hayvonlarday qo'lga o'rgatish mumkin. Yoki, yaxshisi, shu mashmashani yig'ishtirib qo'ya qolsamikin?

Zurita «iblis»ni birinchi ko'rgan kishiga mukofot berajagini aytib, yana bir necha kun kutishga qaror qildi.

Uning toleiga, uchinchi hafta deganda, nihoyat «iblis» ko'rinish bera boshladi.

Kunduzgi ovdan keyin Baltazar qayiqni to'la balig'i bilan qirg'oqda qoldirdi. Ertalab baliq oluvchi xaridorlar kelishi kerak edi. Baltazar tanish bir hinduni ko'rib kelish uchun fermaga ketdi, qaytib kelib qarasa, qayiq bo'shab qolibdi. Baltazar darhol, bu «iblis»ning ishi, degan fikrga keldi.

«Nahotki, shuncha baliqni yeb qo'ygan bo'lsa?» — deb taajjublandi u.

O'sha kuni kechasi navbatchilikda turgan hindulardan biri ko'rfazning janubida burg'i ovozi eshitib qoldi. Ikki kun o'tgach, sahar paytida araukan yigit «iblis»ning izini topishga muvaffaq bo'lganini xabar qildi. Uni delfin bilan birga ko'rgan. Bu gal «iblis» delfinning ustida emas, balki bo'ynidagi abzali — enlik qayishdan ushlagan u bilan yonma-yon suzib kelgan. «Iblis» ko'rfazga yetgach, delfinning bo'ynidan qayishni yechgan-da, qo'li bilan jonivorning yelkasiga qoqib, o'zi suv ostidagi tik qoyaning tagiga kirib ketgan. Delfin suv yuzida biroz suzib yurgach, ko'zdan yo'qolgan.

Zurita araukanning gaplarini eshitib, unga mukofot va'da qildi-da:

— Bugun kunduzi «iblis» uyasidan chiqishi gumon. Shuning uchun ko'rfaz tubini ko'zdan kechirishimiz kerak. Kim bu ishni bajaradi? — dedi.

G'alati maxluq bilan yuzma-yuz kelishdan qo'rqib, hech kim dengiz ostiga tushishni istamasdi.

Baltazar oldinga chiqdi.

— Mana men! — dedi u qisqa qilib. Baltazar hammavaqt o'z so'zining ustidan chiqishga odatlangandi.

«Meduza» hamon langarda turardi. Qorovullardan boshqa hamma qirg'oqqa chiqib, ko'rfazdagi tik qoya tomon yo'l oldi.

Baltazar mabodo yarador bo'lib qolsa, tortib olishlari uchun beliga arqon bog'ladi, pichoq oldi, keyin oyoqlari orasiga tosh qistirib, suv ostiga tushib ketdi.

Araukanlar ko'rfazdagi qoyalar soyasidagi zangori tuman orasidan g'ira-shira ko'rinayotgan nuqtaga tikilib, uning qaytishini sabrsizlik bilan kutib turishdi. Qirq, ellik sekund, bir minut o'tdi hamki,

Baltazar suvdan chiqmasdi. Nihoyat arqonni siltadi, uni tortib olishdi. Baltazar nafasini rostlab olgach:

— Torgina yo'lak yerosti g'origa olib boradi. Ichki akulaning qorniday qop-qorong'i: «dengiz iblisi» shu g'orga yashiringan. G'orning atrofi sip-silliq devor, — dedi.

— Juda soz! — deb xitob qildi Zurita. — Qorong'i bo'lsa qaytanga yaxshi. To'rlarimizni joylab qo'ysa, baliq ham ilinadi.

Kun botishi bilan hindular pishiq arqonga bog'lagan sim to'rlarni g'orning og'ziga tushirib, arqonning bir uchini qirg'oqqa mahkamlab tashladilar. Baltazar arqoga qo'ng'iroqchalar osib qo'ydi: ular to'rga biror narsa sal tegishi bilan jiringlab, qirg'oqdagilarni ogohlantirar edi.

Zurita, Baltazar va besh araukan sohilga o'tirib olib, jimgina kutib turishdi. Kemada hech kim qolmagan edi.

Tezda qorong'ulik tushdi. Oy chiqib uning nuri suv yuzida jilva qila boshladi. Hammayoq jimjit. Odamlarni favqulodda bir hayajon chulg'ab olgan edi. Kim biladi, baliqchi va marvarid qidiruvchilarning yuragiga dahshat solib turgan g'alati mavjudotni hozir ular ko'rib qolishar.

Tun daqiqalari sekinlik bilan o'tardi. Odamlar mudray boshladilar.

Birdan qo'ng'iroqchalar jiringlab qoldi. Hamma sapchib turib, arqonga yopishdi. To'rni ko'tara boshladilar. U xiyla og'ir edi. Arqonlar silkinib, to'r ichida nimadir tipirchilardi. Mana, to'r okean sathiga chiqishi bilan xira oy yorug'ida yarim inson-yarim hayvon qiyofasidagi tana ko'zga tashlandi. Oy nuri uning kattakon ko'zlarida va kumushrang tangachalarida yarqirardi. «Iblis» to'rga o'ralib qolgan qo'lini xalos qilish uchun zo'r berib urinardi. U bunga muvaffaq bo'ldi ham. Belidagi ingichka kamarida osilib turgan pichog'ini sug'urib, to'rni qirqa boshladi.

— Qirqib bo'psan, tirmizak! — deb g'uldiradi o'ljasiga ayngrayib tikilib qolgan Baltazar.

Ammo uni hangu mang etib, pichoq sim to'rni bemalol qirqdi. «Iblis» chaqqonlik bilan teshikni kengaytira boshladi, qidiruvchilar jonholatda to'rni qirg'oqqa tortishga tushdilar.

— Tezroq! Tezroq! — deb baqirib qoldi Baltazar.

Ammo o'lja endi so'zsiz qo'lga tushdi deganda «iblis» qirqilgan joydan o'zini suvga tashlab, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Angrayib qolgan qidiruvchilarning qo'lidan arqon tushib ketdi.

— Ajoyib pichoq! Simni qirqdi-ya! — dedi zavq bilan Baltazar.

— Suv ostidagi temirchilar bizlarnikidan durust ekan-da.

Zurita boshini ham qilib, butun boyligidan ajralib qolgan kishiday, suvga termilib qolgan edi. Nihoyat u boshini ko'tardi, paxmoq mo'ylovini silab, yer tepindi.

— Yo'q, yo'q! — deb qichqirdi u. — Jahan-namdagi o'sha g'oringda o'lsang o'lasanki, mendan qutula olmaysan. Har qancha pulni ayamayman, g'avvoslar tushiraman, butun ko'rfazni to'r va qopqonlar bilan to'ldirib tashlayman, ha, qo'linga tushmaguningcha qo'ymayman!

U dovyurak, matonatli va o'jar kishi edi. Bu bejiz emasdi. Pedo Zuritaning tomirlarida ispan bosqinchilarining qoni bor edi. Bundan tashqari haligiday nodir narsa uchun har qancha kurashsa arzirdi ham.

«Dengiz iblisi» hech qanday mo'jizaviy va qudratli mavjudot emas ekan. U ko'rinishidan, Baltazar aytganiday, go'sht va suyakdan yasalganga o'xshaydi. Demak, uni tutib zanjirga bog'lab qo'yish va uni Zuritaning manfaati yo'lida okean tubidan boylik izlattirish mumkin. Mabodo dengiz xudosi Neptunning o'zi qo'lga ayri olib «dengiz

iblisi^{ning} yonida turganida ham Baltazar uni albatta qo'lga tushiradi.

DOKTOR SALVATOR

Zurita o'z muddaosini amalga oshirishga jiddiy kirishdi. U ko'rfaz ostiga sim to'siqlar tortdi, hamma tomonga to'r tashladi, qopqonlar qo'ydi. Ammo hozircha uning o'ljasi faqat baliqlardangina iboat bo'lib qoldi, «dengiz iblisi» xuddi yer tagiga kirganday yo'q bo'ldi-ketdi. U qaytib ko'rinmadi ham, o'zidan nom-u nishon bermadi ham. O'rgatilgan delfin har kuni ko'rfazga kelib, bamisoli o'z do'stini sayrga chorlaganday, suvga sho'ng'ir va behuda pishqirardi. Do'sti ko'rinavermagach, u jahl bilan oxirgi marta pishqirdi-da, ochiq okeanga suzib ketdi.

Havoning avzoyi buzildi. Sharqdan ko'tarilgan shamol okean sathini beshikday tebratardi; to'zg'ib ketgan qum ko'rfaz suvini loyqalantirib yubordi. Serko'pik to'lqinlar okean tubini butunlay ko'zdan yashirib qo'ydi. Suv ostida nimalar bo'layotganini endi ko'rib bo'lmasdi.

Zurita qirg'oqda qavat-qavat to'lqinlarga termulganicha soatlab turardi. Bir-birin quvlab, bostirib kelayotgan ulkan to'lqinlar osmonga sapchir, uning quyi qatlamlari ho'l qum ustida o'rmalab, shag'al va chig'anoqlarni surib, Zuritaning oyoqlariga urilardi.

— Yo'q, bu bilan ish bitmaydi, — dedi Zurita. — Boshqa chora o'ylash kerak. «Iblis» inidan chiqmayapti. Demak, uni tutish uchun oldiga — suv ostiga tushishga to'g'ri keladi. Bu aniq! — Shunday deb, u yangi, mustahkam qopqon yasash bilan ovora bo'lib o'tirgan Baltazarga murojaat qildi:

— Darhol Buenos-Ayresga jo'na, u yerdan ikkita kislorodli g'avvoslik kostyumi olib kel. Odatdagi ichakli g'avvoslar kostyumi havo yuborish uchun

yaramaydi. «Iblis» ichakni kesib yuborishi mumkin. Bundan tashqari, ehtimol, qisqa suv o'sti sayohati uyushtirishga to'g'ri kelib qolar. Ha, aytganday, elektr fonarlari olishni ham unutma.

— «Iblis» nikiga mehmonga bormoqchimisiz? — deb so'radi Baltazar.

— Men bilan birga, albatta, chol.

Baltazar bosh irq'ab, yo'lga tushdi.

U g'avvoslik kostyumlari va fonarlarga emas, balki bronzadan ishlangan bir juft uzun-uzun jimjimador egri pichoq ham keltirdi.

— Hozir bunaqasini yasay olmaydilar, — dedi u. — Bu araukanlarning qadimiy pichog'i. Ko'nglingizga kelmasin-u, bu pichoqlar bilan mening katta bobolarim qachonlardir oqlarning — sizning katta bobolaringizning qornini yorgan.

Bu tarixiy ma'lumot Zuritaga yoqmasdi, shunga qaramay, pichoqlar unga ma'qul bo'ldi.

— Sen juda uzoqni ko'radigan odamsan, Baltazar

Ertasi kuni tongotarda kuchli bo'ron bo'lishiga qaramay, Zurita bilan Baltazar g'avvoslik kostyumlarini kiyib dengiz tubiga sho'ng'ishdi. Ular suvosti g'orining og'zidagi to'rni qiyinchilik bilan bir chetga surib torgina yo'lakka kirishdi. Bir zumda hammayoqni qorong'ulik bosdi. G'avvoslar oyoqqa turib, pichoqlarini sug'urdilar-da, elektr fonarlarini yoqdilar. Nurdan cho'chigan baliqlar o'zini to'rt tomonga urdi, keyin esa ular xuddi hashorat galasiday fonarning zangori nuri tegrasida parvona bo'lib, unga talpina boshladilar.

Baliqlarning tangachalari yarqirab ko'zni qamashtirganidan Zurita ularni qo'li bilan haydashga tushdi. Bu — balandligi to'rt metr va kengligi besh-olti metr keladigan kattagina g'or edi. G'avvoslar atrofni ko'zdan kechirishdi. G'or bo'm-bo'sh, kimsasiz. Bu yerda faqat mayda baliqlar dengiz bo'ronlari va yirtqichlaridan jon saqlasalar kerak.

Zurita va Baltazar bitta-bitta bosib, olg'a yurдилar. G'or borgan sari toraya boshladi. To'satdan Zurita taqqa to'xtab qoldi. Fonar yorug'i yug'on temir panjaraga tushdi.

Zurita ko'zlariga ishonmadi. U temir to'siqni olib tashlash maqsadida panjaraga yopishib, uni jon-jahdi bilan siltay boshladi. Ammo panjarani qimirlatib bo'lmadi. Fonar yorug'ida yaxshilab razm solgach, Zurita panjaraning g'or devorlariga mahkam qilib o'rnatilganligini, uning halqasi va ichkarida qulfi borligini ko'rdi.

Bu yangi jumboq edi.

«Dengiz iblisi» faqat aqligina emas, balki favqulodda iste'dodli mavjudot bo'lishi kerak. U delfinni qo'lga o'rgata olgan, u metall ishlari bilan tanish. Nihoyat, u dengiz tubida o'z maskanini qo'riqlovchi mustahkam temir g'ov yasay olgan. Ammo bu mumkin emas-ku! Suv ostida temirni toblab bo'lmaydi. Demak, u nuqul suvdagina yashamaydi yoki juda bo'lmaganda, uzoq muddat quruqlikka chiqib hayot kechiradi.

Suv ostiga tushganlariga bir necha minutgina bo'lganiga qaramay, Zuritaning chakka tomirlari o'ynab ketdi. Bami soli g'avvoslik qalpog'ida havo yetishmaydiganga o'xshardi.

Zurita Baltazarga imo qildi va ular suv osti g'oridan chiqib (bu yerda qiladigan ishlari qolmagan edi), yuqoriga ko'tarilishdi.

Sabrsizlik bilan kutayotgan araukanlar g'avvoslarni eson-omon ko'rib, sevinib ketishdi. Zurita qalpog'ini yechdi va nafasini rostdab olgach:

— Bunga nima deysan, Baltazar? — deb so'radi.

Baltazar qo'llarini yoyib, taajjubini ifodaladi.

— Nima derdim, bu yerda ancha turishga to'g'ri keladi. «Iblis» baliq bilan tirikchilik qiladiganga o'xshaydi. Baliq esa u yerda to'lib yotibdi. Uni g'orda och qoldirib, tutish mumkin emas. Panjarani dinamit bilan portlatish kerak — boshqa iloji yo'q.

— Seningcha, Baltazar, g'orning ikki og'zi bo'lib, biri — ko'rfazda, ikkinchisi — yer yuzida emasmikin?

Baltazar buni o'ylamagan edi.

— Bo'lishi mumkin. Nega avvalroq atrofni ko'zdan kechirish xayolga kelmadi, a? — dedi Zurita.

Ular endi sohilni o'rganishga kirishishdi.

Qirg'oqda Zurita o'n gektarcha joyni o'rab olgan va oq toshdan qurilgan baland devorga duch keldi. Zurita devorni aylanib chiqdi. Uzundan-uzoq bu devorda faqat bitta temir darvoza bor edi. Darvozdagi kichkina eshikcha ichkaridan qulflangan.

«Bu turma yoki qal'a, — deb o'yladi Zurita. — Qiziq, fermerlar bunaqa qalin va baland devor qurishmasdi-ku. Ichkariga mo'ralay desang, devorda na yoriq bor, na tirqish».

Tevarak-atrof — kimsasiz, odamzod qadami yetmagan joy: u yer-bu yerda tikanaklar va kak-tus o'simligi ko'zga tashlanadi. Pastda esa ko'r-faz.

Zurita temir darvozani poylab, bir necha kun devor atrofida aylanib yurdi. Qani endi darvoza ochilsa: undan birov na ichkariga kirar va na tashqariga chiqardi. Devor ortidan «tiq» etgan ovoz eshitilmasdi.

Zurita qosh qorayganda «Meduza» palubasiga qaytib, Baltazarni chaqirtirdi va:

— Ko'rfaz tepasidagi qal'ada kim yashashidan xabaring bormi? — deb so'radi.

— Xabarim bor, fermada ishlaydigan hindulardan so'rab bilib oldim. U yerda Salvator yashaydi.

— Salvatoring kim?

— Xudo, — deb javob berdi Baltazar.

Zurita qop-qora quyuq qoshlarini taajjublanib chimirdi.

— Hazillashyapsanmi?

Baltazar miyig'ida kulib qo'ydi.

— Men eshitganimni aytdim-da. Ko'pgina hindular — Salvatorni xudo, xaloshkor deb atashyapti.

— Nimadan xalos qilarkan u?

— O'limdan. Aytishlaricha, u behad qudartli emish. Salvator mo'jizalar yaratarmish. U o'z qo'llarida hayotni ham, o'limni ham tutib turarmish. U cho'loqlarga yangi, tirik oyoq, ojizlarga burgutnikiday o'tkir ko'z va hatto o'liklarga jon baxsh etarmish.

— La'natilar! — deb g'uldiradi Zurita, barmoqlari bilan paxmoq mo'ylovini burab. — Ko'rfazda «dengiz iblisi», ko'rfaz ustida «Xudo». Seningcha, Baltazar, «iblis» bilan «xudo» bir-biriga yordam bermasmikan?

— Menimcha, bu mo'jizalar dastidan miyamiz suyulmay turib, bu yerdan jo'nab qolishimiz kerak.

— Salvator qo'lida shifo topgan biror kishini o'z ko'zing bilan ko'rdingmi?

— Ko'rdim. Menga bir cho'loq kishini ko'rsatishdi. Salvatornikiga borib kelgandan keyin otday bo'lib ketipti. Bundan tashqari, Salvator tiriltirgan bir hinduni ham ko'rdim. Butun qishloqdagilarning aytishicha, o'sha hindu Salvatornikiga olib ketayotganlarida yaxday murda ekan, Salvatornikidan esa tirilib, o'ynab-kulib qaytipti. O'lgandan keyin yaxshi bir qizga uylanipti. Ularning bolalarini ham ko'rdim...

— Demak, Salvator begonalarni ham qabul qilar ekan-da.

— Faqat hindularni. Uning oldiga hamma tomondan: Olovli Yer va Amazonkadan, Asunsion va Atakama sahrolaridan kelisharkan.

Baltazardan shu xildagi ma'lumotlarni olib, Zurita Buenos-Ayresga borib kelishga qaror qildi.

U yerda Zurita Salvatorning hindularni davolashi va ular orasida mo'jizakor sifatida mashhurligini bilib oldi. Vrachlar uning talantli va hatto buyuk xirurgligini, lekin ko'pgina atoqli

kishilarday telbanamoroq odam ekanligini aytishdi. Salvatorning nomi Eski va Yangi Dunyo ilm ahllari orasida juda keng tarqalgan. Amerikada u o'zining dadil jarrohlik operatsiyalari bilan shuhrat qozongan. Bemorning ahvoli og'irlashib, vrachlar operatsiya qilishdan bosh tortganlarida darhol Salvatorni chaqirishgan. U hech qachon bosh tortmagan. Salvator hayotda jasur va tadbirkor bo'lgan. Imperialistik urush vaqtida u fransuz fronti-da xizmat qilib, faqat bosh miya operatsiyasi bilan shug'ullangan. Minglab kishilarning hayotini saqlab qolgan. Sulh tuzilgandan keyin u o'z vatani-ga, Argentinaga ketadi. Vrachlik kasbi va yer savdosidan Salvator katta boylik ortdiradi. U Buenos-Ayres yaqinidan katta yer sotib olib, uning atrofini baland devor bilan o'rab olgach, (bu uning g'alati tabiatidan bir shingil) o'sha yerga joylashib, avvalgi ishini butunlay yig'ishtirib qo'yadi. U o'z laboratoriyasida faqat ilmiy ish bilan shug'ulla-na boshlaydi. Endi u o'zini quruqlikka chiqqan xudo deb atovchi hindularnigina davolar va qabul qilardi.

Zurita Salvator hayotiga oid yana bir tafsilotni aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Salvatorning hozirgi kattakon mulki o'rnida urushgacha kichkina uy va bog'cha bo'lgan. U ham tosh devor bilan o'ralgan. Salvator frontdaligida bu uyni bir negr va bir necha ulkan it doimo qo'riqlab turgan. Bu sodiq soqchilar uyga biror jonni ham yaqin yo'latmagan.

Keyingi paytlarda Salvator yana maxfiy ishga berildi. U hatto universitetda birga o'qigan sobiq do'stlarini ham qabul qilmasdi.

Ana shunday ma'lumotlardan voqif bo'lgan Zurita:

— Modomiki Salvator vrach ekan, uning bemorni qabul qilishdan bosh tortishga haqi yo'q. Nega men kasal bo'lmas ekanman! O'zimni kasalga solib, Salvatorning huzuriga kiraman. U yog'i keyin ma'lum bo'ladi, — degan qarorga keldi.

Zurita Salvator mulkini qo'riqlab turgan darvozaga qarab yo'l oldi va borib uni tiqillata boshladi. Uzoq va qattiq tiqillatganiga qaramay, hech kim ochmadi. Jahlidan bo'g'ilib ketgan Zurita katta bir toshni olib shunaqa ura boshladiki, shovqiniga hatto o'lik ham sapchib o'rnidan turib ketishi mumkin edi.

Devor ortida, uzoqda kuchuklarning akillagani eshitildi, saldan keyin eshik qulfining teshigi ochildi.

— Kim u? — deb so'radi birov ispan tilida.

— Kasal, tezroq oching, — deb javob berdi Zurita.

— Kasallar bunaqa taqillatmaydilar, dedi boya-gi tovush ohista va qulfning teshigidan birovning ko'zi ko'rindi. — Doktor qabul qilmaydi.

— Kasalga yordam berishdan bosh tortishga nima haqi bor? — dedi jig'ibiyron bo'lib Zurita.

Qulfning teshigi yana bekildi va oyoq tovushi asta-sekin uzoqlasha boshladi. Faqat kuchuklar hamon zo'r berib akillardilar.

Zurita so'kinib-so'kinib kemaga qaytib keldi.

Salvator ustidan Buenos-Ayresga shikoyat qilish kerakmikan? Ammo buning foydasi yo'q. Zurita g'azabdan titrardi. Uning paxmoq qora mo'ylovlari jiddiy xavf ostida qoldi: Zurita hayajon ichida dam o'tmay ularni yulqib tortaverganidan xuddi past bosimni ko'rsatuvchi barometr strelkasiday quyi tushib ketgan edi.

U o'zini sal tutib olgach, bundan keyin nima qilish kerakligi haqida o'ylay boshladi.

O'ylagan sari uning oftobda toblangan jigarrang barmoqlari to'zg'igan mo'ylovlarini tepaga burardi. Barometr ko'tarila boshladi.

Nihoyat, u palubaga chiqib, kutilmaganda ham-maga langarni ko'tarish haqida buyruq berdi.

«Meduza» Buenos-Ayresga qarab yo'l oldi.

— Yaxshi, — dedi Baltazar. — Qancha vaqtimiz behuda ketdi. «Iblis»ni ham «xudo»seni ham jin ursin!

Quyosh shafqatsiz qizdirardi. Hosildor bug'doy, makkajo'xori va suli dalasi yoqalab o'tgan sertuproq yo'lda o'lguday holdan toygan keksa bir hindu ketyapti. Usti-boshi juldur. U qo'liga quyosh nuridan asrash uchun eski odeyalga o'ralgan betob bolani ko'tarib olgan. Bolaning ko'zlari yarim yumuq. Uning bo'ynida kattakon shish ko'zga tashlanib turibdi. Ahyon-ahyonda, chol qoqilib ketgan paytlarda bola xirillab ingrar va ko'zlarini xiyol ochib qo'yardi. Chol esa to'xtab, uni shamollatish niyatida yuziga beozorgina puf-lardi.

— Ishqilib, tirik olib borayin-da, — deb pichirlardi chol qadamini tezlatib.

Temir darvozaga yetib kelgach, hindu bolani chap qo'liga olib, o'ng qo'li bilan eshikni to'rt marta qoqdi.

Eshik qulfining teshigi qiya ochilib, yoriqdan biron mo'raladi, keyin tamba qichirladi-yu, eshik ochildi.

Hindu qo'rqa-pisa ostonadan hatladi. Uning qarshisida oq xalat kiygan, jingalak sochlari oppoq keksa bir negr turardi.

— Doktorga keluvdim, bolaning tobi qochib qoldi, — dedi hindu.

Negr indamay bosh silkidi, eshikni tambaladi-da, orqamdan yur deganday ishora qildi.

Hindu atrofga ko'z tashladi. Ular tosh yotqizilgan mo''jazgina hovlida turishardi. Hovlining bir tomoni baland tashqi devor bilan, ikkinchi tomoni esa — hovlini qo'rg'onning ichkari qismidan ajratuvchi pastroq devor bilan o'ralgan. Na bir giyoh va na bir ko'kat ko'rinadi — xuddi turma. Hovlining burchagida, ikkinchi devor darvozasi yonida kattakon derazali oq uy qad kergan. Uyning oldida, yerda erkak va ayol hindular o'tirishibdi. Ko'plarining bolalari bor.

Bolalarning deyarli hammasi tetik. Ularning ba'zilari chig'anoqlarda juftmi-toq o'ynashyapti, ba'zilari esa ovoz chiqarmasdan kurashishyapti. oq sochli negr bolalar shovqin ko'tarmasliklari uchun doimo ko'z-quloq bo'lib turardi.

Keksa hindu itoatkorlik bilan yerga, uy soyasi tushib turgan joyga o'tirdi va bolaning ko'karib ketgan harakatsiz yuziga puflay boshladi. Hinduning yonida oyog'i shishgan bir kampir o'tirardi. U hinduning tizzasida yotgan bolaga termilib:

— Qizingmi? — deb so'radi.

— Nabiram, — deb javob berdi hindu.

Kampir boshini sarak-sarak qilib:

— Nabirangni jin chalibdi. Ammo u har qanday jindan ham kuchli, nabirang albatta tuzalib ketadi, — dedi.

Hindu ma'qullaganday bosh silkidi.

Oq xalat kiygan negr bemorlarni aylanib o'tib, hinduning bolasiga ko'z tashladi va uy eshigiga ishora qildi.

Hindu sahniga tosh yotqizilgan katta xonaga kirdi. Xonaning o'rtasida ustiga oq choyshab yopilgan ingichka uzun stol turardi. Xira oynali ikkinchi eshik ochilib, xonaga oq xalat kiygan, uzun bo'yli, yelkador, qoramag'iz kishi — doktor Salvator kirdi. Qop-qora qoshi va kipriklaridan boshqa Salvatorning boshida biror tuk yo'q edi. Aftidan u boshini har doim qirdirib yursa kerak, negaki bosh terisi xuddi yuziday oftobda qorayib ketgan edi. Kattakon qirg'iy burni, qo'pol va uchdor iyagi hamda qattiq qimtilgan lablari uning chehrasiga shafqatsiz va hatto vahshiyona ifoda berib turardi. Uning qo'y ko'zlari sovuq termilardi. Bu nigoh ta'qibidan hindu o'zini yo'qotib qo'yayozdi.

U egilib ta'zim qilgach, bolani uzatdi. Salvator chaqqon, ishonchli va ayni vaqtda ehtiyotkorona harakat bilan bemor qizchani hinduning qo'lidan oldi-da, bola o'ralgan lattani ajratib, xona bur-

chagida turgan yashikka uloqtirdi. Hindu uvadani olish uchun yashik tomon kalovlanib yura boshlagan edi. Salvator uni darhol to'xtatdi.

— To'xta, tegma!

Keyin qizchani stolga yotqizib, uning ustiga engashdi. U hinduga yon tomonidan ko'rinardi. Shu payt hinduga doktor emas, balki kichkina qushcha ustiga yirtqich qush engashganday tuyuldi. Salvator barmoqlari bilan bolaning bo'ynidagi shishni siypalay boshladi. Uning barmoqlari ham hinduni hangu mang qilib qo'ydi. Bu barmoqlar uzun-uzun, favqulodda harakatchan barmoqlar edi. Ular pastgagina emas, balki yon tomonlarga va hatto tepaga ham bemalol qayrilaverardilar. Ang-rayib qolgan hindu bu g'alati kishi tufayli tug'ila-yotgan vahimali fikrlarni zo'r berib miyasidan quvishga urinardi.

— Soz. Juda soz, — dedi Salvator, go'yo shishdan bahra olganday, uni barmoqlari bilan siypalab.

Ko'rikni tugatib, Salvator hinduga o'girildi va dedi:

— Hozir oy boshi. Bir oydan keyin, yangi oy boshida kel, qizingni soppa-sog' olib ketasan.

U oynavand eshik orqali bolani vannaxona, operatsiya xonasi va kasallar yotadigan palatalar joylashgan ichkari xonaga olib kirib ketdi.

Negr esa qabulxonaga navbatdagi bemorni — oyog'i kasal kampirni olib kirdi.

Hindu Salvator ortidan berkilgan oynali eshikka egilib ta'zim qildi-da, tashqariga chiqdi.

Roppa-rosa yigirma sakkiz kundan keyin yana o'sha oynali eshik ochildi. Ostonada yangi ko'ylak kiyan, tetik, yuzlari qip-qizil qizcha turardi. U bobosiga hadik bilan tikilardi. Hindu qizchasiga tashlanib, qo'lga dast ko'tarib oldi-da, yuzko'zlaridan o'pa ketdi, keyin tomog'iga qaradi. Shishdan nomu nishon qolmagan edi. Faqat kich-

kina, bilinar-bilinmas qizg'ish chandiq operatsiya-dan guvohlik berib turar edi.

Qizcha qo'li bilan zo'r berib bobosini nari itarar, o'pmoqchi bo'lib, o'zining ko'pdan beri ustara tegmagan soqolini botirganida esa hatto dodlab yuborardi. Qizchani yerga qo'yishga to'g'ri keldi. Xonaga Salvator kirdi. Endi doktor hatto jilmaydi va qizchaning boshini silarkan:

— Mana, qizingni qabul qil. O'z vaqtida olib kelibsan. Bir necha soat kechikkaningda ham uning hayotini saqlab qolib bo'lmasdi, — dedi.

Keksa hinduning yuzi bir zumda ajinlar bilan qoplandi, lablari titrab, ko'zlaridan yosh quyildi. U qizchani yana ko'tarib, bag'riga bosdi, keyin Salvatorning oyoqlari ostiga tiz cho'kdi-da, titroq ovoz bilan:

— Siz nabiramni saqlab qoldingiz. Qashshoq hindu sizga o'z hayotidan bo'lak nimani hadya qila olardi? — dedi.

— Sening hayoting menga nima uchun kerak ekan? — deb taajjublandi Salvator.

— Qari bo'lsam ham, hali quvvatim bor, — deb davom etdi hindu cho'kkalagancha. — Nabiramni onasiga — qizim oldiga tashlayman-da, huzuringizga qaytaman. Menga qilgan yaxshiligingiz uchun qolgan butun umrimni sizga bag'ishlayman. Qul misoli xizmasingizni qilaman. O'tinib so'rayman, marhamatingizni darig' tutmang.

Salvator o'ylanib qoldi.

Yumush topilishiga qaraymay, Salvator yangi xizmatkorlarni juda ehtiyotkorlik va noxushlik bilan olardi. Ish ko'p, — Djim bog' ishlarini yolg'iz uddalay olmaydi, doktor negrni afzal ko'rsa ham, bu hindu juda munosib kishiga o'xshardi.

— Sen menga hayotingni taqdim qilib, marhamat yuzasidan o'z tuhfangni qabul qilishimni so'rayapsan. Yaxshi. Seningcha bo'lsin. Qachon qaytib kelasan?

— Bir haftaga qolmay shu yerda bo'laman, — dedi hindu Salvatorning etagini o'pib.

— Isming nima?

— Menikimi?.. Kristo — Xristofor.

— Bor, Kristo. Seni kutaman.

— Yur, qizginam! — dedi Kristo nabirasiga murojaat qilib va yana uni qo'liga oldi. Qizcha yig'lab yubordi. Kristo tashqariga shoshildi.

G'AROYIB BOG'

Bir haftadan keyin Kristo qaytib keldi. Salvator uning ko'zlariga diqqat bilan tikilib, dedi:

— Yaxshilab quloq sol, Kristo. Seni ishga qabul qilaman. Yaxshi boqaman, durustgina maosh ham olasan...

Kristo qo'l silkidi.

— Menga hech narsa kerak emas, dargohingizda xizmat qilsam kifoya.

— To'xta, gapga quloq sol, — deb davom etdi Salvator. — Sen hamma narsaga ega bo'lasan. Ammo bitta shartim bor: bu yerda ko'rganlaring haqida hech kimga og'iz ochmasliging kerak.

— Birovga churq etsam, tilim kesilsin.

— Ehtiyot bo'l, bunaqa falokatga sen yo'liqma, — dedi ogohlantirib Salvator va oq xalatli negrni chaqirib:

— Bu kishini boqqa olib borib, Djimning qo'liga topshir, — deb buyurdi.

Negr indamay ta'zim qildi va hinduni oq uydan olib chiqdida, Kristoga tanish bo'lgan hovlidan o'tib, ikkinchi devordagi temir eshikni taqillata boshladi.

Devor orqasidan itning vovullagani eshitildi, eshik g'ichirlab, astagina ochildi, negr Kristoni bog' ichiga itarib yubordida, eshik orqasida turgan boshqa bir negrga bo'g'iq ovozda allanimalar deb qichqirib iziga qaytdi.

Kristo qo'rqqanidan devorga yopishib oldi: unga tomon o'kkirikka o'xshash hurib, qizil-sarg'ish tusdagi qora xolli g'alati yirtqichlar yugurib kelardi. Agar Kristo ularga sahroda duch kelganida, albatta, qoplon deb o'ylagan bo'lardi. Ammo chopib kelayotgan yirtqichlar itga o'xshab akillardi. Hozir qanaqa hayvon hujum qilsa ham Kristoga bari bir edi. U yaqin turgan bir daraxtga otilib, jonholatda unga tirmashib chiqa boshladi. Negr itlarga xuddi achchiqlangan zaharli ilonga o'xshab vishillagan edi, darrov hammasi shashtidan tushdi. Ular akillashni to'xtatib, yerga cho'zilishdi va boshlarini ikki oldingi oyoqlari ustiga qo'yib, ko'z qiri bilan negrga tikilib olishdi.

Negr daraxt tepasida o'tirgan Kristoga qarab vishillay boshladi, keyin daraxtdan tush deganday qo'l silkidi.

— Nega ilonga o'xshab vishillaysan? — dedi Kristo o'rnidan jilmay. — Tiling tanglayingga yopishib qolganmi?

Negr g'azab bilan o'kirib qo'ydi.

«Soqov bo'lsa kerak», — deb o'yladi Kristo va Salvatorning ogohlantirishini esladi. Nahotki Salvator sirni fosh etgan xizmatkorlarining tilini qirqsa? Aftidan anovi negrning ham tili kesilgan bo'lsa kerak... Shu on Kristoning yuragi shu qadar orqasiga tortib ketdiki, daraxtdan ag'darilib tushishiga sal qoldi. Biror iloj qilib tezroq bu yerdan qochgisi keldi. U o'zi o'tirgan daraxtdan devorgacha bo'lgan masofani chamalab ko'rdi. Yo'q, sakrash mumkin emas... Shu payt negr daraxt ostiga keldi-da, hinduning oyog'idan ushlab zo'r berib pastga torta boshladi. Bo'ysunishdan boshqa iloj qolmagan edi. Kristo daraxtdan sakrab tushdi-da, iltifot bilan iljayishga urindi va unga qo'l uzatib:

— Djimmisan? — deb so'radi do'stona qiyofada. Negr bosh silkidi.

Kristo uning qo'lini mahkam qisdi. «Do'zaxga tushdingmi, endi iblislar bilan murosqa qilish kerak», — deb o'yladi u va baland ovozda davom etdi:

— Soqovmisan?

Negr javob bermadi.

— Tiling yo'qmi?

Negr yana indamay turaverdi.

«Qanaqa qilib og'zini ko'rsa bo'larkin? — deb o'yladi Kristo. Ammo Djim ko'rinishidan imo-ishora bilan ham gaplashishni istamasdi. U Kristoning qo'lidan ushlab, qizil-sarg'ish yirtqichlar oldiga olib keldi va ularga allanima deb vishilladi. Yirtqichlar o'rnidan turib, Kristoga yaqinlashishdi-da, uni hidlab yana asta nari ketishdi. Kristoning yuragi biroz taskin topdi.

Djim Kristoni bog' bilan tanishtira boshladi.

Tosh yotqizilgan befayz hovlidan o'tganlaridan keyin bog' o'zining gul va ko'katlari bilan Kristoni hayratda qoldirdi. Sharqqa qarab cho'zilib ketgan bog' dengiz qirg'og'i sari pasayib borardi. Qizg'ish chig'anoq uvoqlari sepilgan yo'laklar har tomonga taralib ketgan. Yo'laklarning chetida jozibado kaktuslar va shirador zangori agavalar¹, son-sanoqsiz sariq-ko'kish gulli g'o'shshagullar o'sib yotibdi. Behisob shaftoli va zaytun ko'zni qamashtiruvchi rango-rang gulli qalin ko'katlar ustiga soya tashlab turibdi. Ko'katlar orasidan chetiga oq tosh terilgan hovuzlar ko'zga tashlanadi. Katta-katta fontanlar havoni sof va orombaxsh etgan.

Bog' turli-tuman qichqiriqlar, qushlarning chug'ur-chug'uri, hayvonlarning o'kirishi va chinqirig'i bilan to'lib-toshgan edi.

Kristo umri bino bo'lib, bu qadar g'alati qush va hayvonlarni ko'rmagandi. Bu bog'da misli ko'rilmagan yirtqichlar yashar edi.

¹ Agava — qalin, bargi shirador o'simlik. Uning tolasidan gazlama, shirasidan ichimlik qilinadi. (Avtor izohi).

Mana, ko'kimtir mis tusli, olti oyoqli kaltakesak yo'lkani kesib o'tdi. Daraxt tepasida ikki boshli ilon chirillab qoldi. Kristo ikkita qip-qizil og'zini ochib vishillab turgan bu qo'shkalla sudraluvchidan qo'rqib, o'zini bir chetga otdi. Negr unga javoban qattiqroq vishillagan edi, ilon boshini havoda o'ynatib, daraxtdan quladi va qamishzor orasiga kirib ketdi. Boshqa bir ikki oyoqli uzun ilon yo'lkada o'rmalab borardi. Temir qafas ichida xur-xurlayotgan cho'chqa bolasi qoq peshonasiga joylashgan bittayu bitta kattakon ko'zini Kristoga tikkan edi.

Bir-biriga tutash ikki oq kalamush qizg'ish yo'lka bo'ylab xuddi ikki boshli va sakkiz oyoqli maxluqday chopib yuribdi. Ba'zan bu qo'shaloq hayvonlar o'zaro kurashishga tushadi: o'ng tomondagi kalamush o'ngga tortadi, chapdagisi — chapga, har ikkisi ham norozilik bilan chiyillaydi. Ammo hammavaqt o'ng yoqdagi kalamush g'olib kelar edi. Yo'lakning chetida egizaklar — biqinlari bilan bir-biriga tutashgan ikki mayin junli qo'y o'tlab yuribdi. Ular kalamushlarga o'xshab tortishmasdi. Har ikkovi o'rtasida allaqachonlaroq iroda va xohish birligi vujudga kelganday. Bir maxluq ayniqsa Kristoni hayratda qoldirdi. Kattakon, butunlay yungsiz qizil it. Uning ustida, xuddi itning terisidan chiqqanday, kichkina maymun o'tirardi. It Kristoga yaqinlashib dumini likillatdi. Maymun boshini qimirlatib, qo'llarini silkitar o'zi tutashgan itning yelkasiga shapatilar va Kristoga qarab, chiyillardi. Hindu cho'ntagidan bir chaqmoq qand olib, maymunga uzatdi. Ammo kimdir Kristoning qo'lini jonholatda chetga tortdi. Orqada vishillagan tovush eshitildi. Kristo o'girilib qarab Djimni ko'rdi. Keksa negr imo-ishora bilan maymunga ovqat berish mumkin emasligini tushuntirdi. Shu payt kichkina to'tiboshli qarg'a uchib keta turib, Kristoning qo'lidagi qandni yulib oldi-da, buta orasiga yashirindi. Huv narida o'tloqda sigir boshli ot kishnardi.

Yaylovda otnikiga o'xshagan dumlarini silkitib, ikki tuya kezib yuribdi. Ko'katlar, chakalakzorlar, daraxt butalari orasidan Kristoga ajoyib-g'aroyib hayvonlar, yirtqichlar va qushlar ko'z tikkan edi: mushuk boshli itlar, xo'roz boshli g'ozlar, shoxdor to'ng'iz, burgut tumshuqli tuyaqushlar, yovvoyi mushuk tanli qo'yalar...

Kristo alahsirayapman shekilli deb o'yladi. Ko'zlarini ishqalab, fontanlarning muzdek suvi bilan boshini ho'lladi, ammo foyda bermadi. Hovuzlarda u baliq boshli va jabrali ilonlarni, baqanikiga o'xshagan oyoq-qo'lli baliqlarni, kaltakesak-simon uzun tanli kattakon baqalarni ko'rdi...

Kristoning yana qochgisi kelib ketdi.

Nihoyat Djim Kristoni qum sepilgan keng sayxonlikka olib chiqdi. Xurmo daraxtlari bilan o'ralgan maydonning o'rtasida Mavritaniya uslubida qurilgan oq marmar devorli ko'rkam bino qad kerib turardi. Xurmo poyalari orasidan ark va tosh ustunlar ko'zga tashlanadi. Delfin shaklidagi mis fontanlardan otilgan suv oltin baliqlar suzib yurgan shaffof hovuzlarga shaloladay quyilmoqda. Binoga kiraverishdagi eng katta fontan afsonaviy Tritondagi¹ delfin ustida og'ziga aylanma burg'u tutib turgan yosh yigitni aks ettirardi. Iste'dodli haykaltarosh qo'li bilan bunyod etilgan bu asar yigit va delfinning g'oyat jonliligi bilan kishini maftun etadi.

Bino orqasida bir necha turar joy va xizmat xonalari bo'lib, undan nari esa oq devorga qadar quyuq kaktus bilan qoplangan edi.

«Yana devor!» — deb dilidan o'tkazdi Kristo.

Djim hinduni chog'roqqina salqin bir xonaga olib kirdi. U imo-ishora bilan bu uy Kristoga qarashli ekanligini tushuntirdi-da, uni yolg'iz qoldirib iziga qaytdi.

¹ Triton — grek mifologiyasida dengiz to'liqlari xudosi. Dengiz chig'anog'ini chalib u to'liqlarni to'xtatgan yoki to'liqlantirgan. Uni ko'pgina delfinga mingan holda tasvir etganlar. (Avtor izohi).

Kristo asta-sekin o'zini qurshab turgan g'ayritabiiy muhitga ko'nika boshladi. Bog'dagi jamiki yirtqichlar, parranda va hayvonlar yaxshi o'rgatilgan edi. Kristo ularning ba'zilari bilan hatto do'stlashib ham oldi. Birinchi kuni o'takasini yorgan qoplon terili itlar bir zum uning ortidan qolmay, qo'llarini yalar, erkalanardilar. Tuyalar uning qo'lidan ovqat olar, to'tiqushlar esa to'ppa-to'g'ri yelkasiga kelib qo'nardi.

Bog' va hayvonlarga o'n ikki negr qarab turardi. Ularning bari Djim kabi indamas yoxud soqov edi. Kristo ularning hatto bir-birlari bilan ham gaplashganini sira eshitmadi. Har kim indamay o'z ishini qilaverardi. Bog'da Djim ishboshi edi. U negrlarni nazoat qilib turar va ish taqsimlardi. Kristo esa unga yordamchi etib tayinlandi. Kristoning vazifasi unchalik og'ir emas, yemishi istagancha. U turmushidan shikoyat qila olmasdi. Ammo bir narsa — negrlarning kunu tun indamay yurishlari uni tashvishlantirardi. U Salvator hammasining ham tilini kesib tashlagan, deb ishonardi. Shuning uchun ham doktor ahyon-ahyon uni huzuriga chaqirtirganida, hindu har gal: «Tilimni kesadi», — deb o'ylardi. Biroq ko'p o'tmay Kristo o'z tilidan kamroq xavotirlanadigan bo'lib qoldi.

Bir kuni Kristo Djimni daraxt soyasida uxlab yotgan holda ko'rdi. Negr chalqanchasiga og'zini ochgancha yotardi. Kristo bundan foydalanib ohista uning og'ziga mo'raladi va keksa negrning tili o'z o'rnida turganini ko'rib, ancha xotirjam bo'ldi.

Salvator ish vaqtini qat'iy taqsimlab olgan edi. Ertalab soat yettidan to'qqizgacha bemor hindularni qabul qilar, to'qqizdan o'n birgacha operatsiya bilan shug'ullanar keyin esa o'z xonasiga borib, laboratoriyada ishlardi. U hayvonlarni operatsiya qilgandan so'ng ularni uzoq vaqt o'rganardi. Kuzatish tamom bo'lgandan keyin Salvator bu

hayvonlarni boqqa jo'natardi. Kristo uyni yig'ishtirib yurib, ba'zan laboratoriyaga ham kirib qolardi. U yerda ko'rgan narsalari uni butunlay lol qilib qo'yardi. Allaqanday suyuqliq to'ldirilgan shisha bankalarda har xil mavjudotlar hayot kechirar, kesib olingan qo'l va oyoqlar harakat qilib turar edi. Tanadan judo etilgan bu tirik a'zolar kasallanguday bo'lsa, Salvator ularni davolab, hayot baxsh etar edi.

Bularning hammasi Kristoning yuragiga dahshat solar, shuning uchun ham u bog'dagi hayvonlar orasida yurishni afzalroq ko'rardi.

Salvator tomonidan o'ziga bildirilgan shuncha ishonchga qaramay, Kristo uchinchi devordan nari-ga o'tishga jur'at etolmasdi. Lekin bu uni juda qiziqtirardi. Bir kuni tush mahali hamma dam olayotgan paytda Kristo baland devor yoniga chopib keldi. Devor ortidan bolalarning ovozlari, hinducha so'zlar eshitilib turardi. Amo goho-goho bu ovozlarga kimningdir inglichka, chinqiroq tovushi qo'shilar, kimdir bolalar bilan jig'illashayotganday va qandaydir notanish tilda gapirayotganday tuyulardi.

Bir kuni Salvator Kristoni bog'da uchratib qolib, unga yaqinlashdi va odatdagiday ko'zlariga tik qarab, dedi:

— Mana, ishlayotganingga ham bir oy bo'lib qoldi, Kristo, sendan juda xursandman. Pastki bog'dagi xizmatkorlarimdan biri kasal bo'lib qoldi. O'shaning o'rnida ishlab turishing lozim. U yerda juda ko'p yangi narsalarni ko'rasan. Ammo tunov kungi gap yodingda bo'lsin: tilimdan ayrilmay desang, uni ehtiyot qil.

— Soqolv xizmatkorlaringiz orasida gapirishni ham unutayozdim, doktor,— deb javob berdi Kristo.

— Qaytanga yaxshi. Oz so'yla, ko'p o'yla, deganlar. Qancha kam gapirsang, shuncha ko'p oltin olasan. Ikki haftalardan keyin bemor xizmatkorimni oyoqqa turg'azsam kerak. Darvoqe, Andni yaxshi bilasanmi?

— Tog'da katta bo'lganman.

— Juda soz. Hayvonotxonani yangi hayvon va qushlar bilan to'ldirmog'im zarur. Seni o'zim bilan biqqa olib ketaman. Endi esa bor, Djim seni pastki boqqacha kuzatib qo'yadi.

Kristo ko'p narsalarga ko'nikib qolgan edi. Ammo pastki bog'da ko'rganlari u kutganidan ham oshib tushdi.

Quyosh nuri tushib turgan katta yalanglikda yalang'och bolalar va maymunlar o'ynab yuribdi. Bu bolalar turli hindu qabilalariga mansub. Ular orasida juda kichkinalari — uch yashardan tortib o'n ikki yoshgacha bo'lgan bolalar bor. Ular Salvatorning bemorlari edilar. Ko'plari jiddiy operatsiyadan chiqqan — minnatdorchiliklarining nihoyasi yo'q. Sog'ayib ketgan bolalar bog'da sayr qilar, butunlay quvvatga kirganlaridan so'ng esa ota-onalari uy-uylariga olib ketishardi.

Bolalardan tashqari bu yerda maymunlar ham bor. Ba'zilar dumsiz, ba'zilarining yungi yo'q.

Eng qizig'i shundaki, hamma maymunlar ozmi-ko'pmi gapira olardi. Ular bolalar bilan tortishar, so'kishar, chiyillashardi. Ammo baribir maymunlar bolalar bilan apoq-chapoq bo'lib ketgan edi. Ularning tortishuvi bolalarning o'zaro janjalidan ortiq emasdi. Kristo ularning haqiqiy maymunmi yoki odam ekanligini hadeganda anglay olmadi.

Kristo bog' bilan tanishib chiqqach, pastki bog'ning yuqoridagi bog'dan kichikroq ekanligini hamda ko'rfaz sari yana ham tikroq nishoblashib, devorday tik qoyaga borib taqalishini payqadi.

Aftidan, dengiz devordan uncha uzoq emasdi. To'lqinning shovullagani eshitilib turardi.

Bir necha kun o'tgach, Kristo qoyani ko'zdan kechirib, uning sun'iy ekanligini angladi. Yana to'siq — to'rtinchi devor! Quyuq ko'katlar orqasi-ga kulrang temir darvoza yashiringandi.

Kristo nafasini yutib quloq soldi. Qoya ortidan to'lqin shovqinidan boshqa tovush eshitilmasdi. Bu

tor eshik qayoqqa olib boradi? Dengiz qirg'og'iga olib chiqarmikin?

Kutilmaganda yosh bolaning hayajonli qichqirig'i eshitildi. Bolalar osmonga qarashdi. Kristo boshini ko'tarib, bog' tepasidan ohista uchib o'tayotgan qip-qizil sharni ko'rdi. Shamol uni borgan sari dengiz tomon surardi, ko'p o'tmay u butunlay ko'zdan yo'qoldi.

Bog' ustidan uchib o'tgan, odatdagi bolalar o'ynaydigan bu shar Kristoni qattiq hayajonga solgan edi. U tashvishlana boshladi. Kasal xizmatkor tuzalib kelishi bilan Kristo Salvatorning huzuriga kirib: — Doktor! Andga qachon jo'naymiz, — balki u yerda ko'p turib qolarmiz. Qizim bilan nabiramni birrov ko'rib kelishga ijozat bering, — dedi.

Salvator o'z xizmatkorlarini hovlidan chiqarmasdi, shuning uchun ham doim yolg'iz kishilarni ishga olishga harakat qilardi. Kristo Salvatorning ko'zlariga tikilganча sukut saqlab turdi.

Salvator Kristoga sovuq bir nigoh tashladi-da, uni ogohlantirdi:

— Shartimizni unutma. Tilingni tiy! Bor. Uch kundan kechikma. Ha, to'xtab tur!

Salvator bir xonaga kirib, oltin tanga solingan xaltacha ko'tarib chiqdi.

— Mana bu nabirangga va tilingni tiyishing uchun senga.

HUJUM

— Agar u bugun ham kelmasa, Baltazar, yordamingdan voz kechaman, boshqa epchilroq, ishonchliroq kishi topaman, — dedi Zurita hurpaygan mo'ylovlarini betoqatlik bilan burib. Zurita shaharda kiyiladigan oq kastum va katta soyavonli shlyapa kiyib olgandi. U Baltazar bilan Buenos-Ayresning tashqarisida, ekin maydonlari tugab sahro boshlanadigan yerda uchrashdi.

Oppoq bluza va yo'l-yo'l ko'k ishton kiygan Baltazar yo'l chetida cho'nqaygancha, xijolatdan miq etolmay, kun nurida qovjiragan ko'katlarni yulqib o'tirardi.

O'z akasi Kristoni Salvatornikiga josuslikka yuborganidan hozir uning o'zi ham pushaymon qila boshlagandi.

Kristo Baltazardan o'n yosh katta edi. Keksayganiga qaramay, u epchil va baquvvatligicha qoldi. Kristo yovvoyi mushukdek ayyor, ishonib bo'lmaydigan kishi edi. Dastlab dehqonchilik qilishga urinib ko'rdi, lekin bu hunar ta'biga o'tirmadi. Keyin portda qahvaxona ochdi, ammo ichkilikka berilib ketib, ko'p o'tmay bor bisotidan mahrum bo'ldi. Keyingi yillarda Kristo o'zining odatdan tashqari ayyorligiga tayanib, kishi bilmas qora ishlar bilan shug'ullanib yurdi. Bunaqangi odam josuslikka juda loyiq edi-yu, lekin unga ishonish mumkin emasdi. Xonasi kelib qolganda u tug'ishgan ukasini ham sotib yuborishi mumkin edi. Baltazar buni bilganidan Zuritaga nisbatan ko'proq tashvishlanayotgan edi.

— Uchirgan sharingni Kristo ko'rganligiga ishonasanmi?

Baltazar yelkasini sal qisib qo'ydi. Shu topda uning bu mashmashadan tezroq qutulgisi, uyga borib, bir qultum vino bilan tomoqni ho'llab, keyin miriqib uxlagisi kelib turardi.

Botayotgan quyoshning so'nggi nurlari tepalik ortidan ko'tarilgan chang uyumini qizg'ish-pushti rang bo'yadi. Shu payt qattiq hushtak tovushi eshitildi.

Baltazar seskanib ketdi.

— Bu o'sha!

— Nihoyat!

Kristo shaxdam-shaxdam yurib, ularga yaqinlashdi. U endi holdan toygan keksa hinduga sira o'xshamasdi. Kristo yana bir marta oliftanamo

hushtak chalib, kelib Baltazar va Zurita bilan so'rashdi.

— Xo'sh, «dengiz iblisi» bilan tanishdingmi? — deb so'radi undan Zurita.

— Hali tanishganimcha yo'q, lekin u o'sha yerda. Salvator «iblis»ni to'rt devor ichida saqlaydi. Asosiy ish hal bo'ldi: men Salvatorning dargohiga xizmatga kirdim, u menga ishonadi. Kasal nabira rosa qo'l keldi-da, — Kristo ko'zlarini makkorona qisib kuldi. — Lekin sog'ayganidan keyin ishni rasvo qilishiga sal qoldi. Men xuddi mehribon boboday uni bag'rimga bosa-man, o'paman-u, u tentak bo'lsa nuqul tumtayadi, yig'lavoray-yig'lavoray deydi. — Kristo yana kuldi.

— Nabirani qayerdan topding? — so'radi Zurita.

— Pul bo'lsa — changalda sho'rva, — deb javob berdi Kristo. — Qizchaning onasi juda xursand. U menga besh pezo berdi, men esa qizini sog'aytirib berdim.

Kristo Salvatoridan olgan oltinlari haqida og'iz ochmadi. U pullarni qizning onasiga berishni xayoliga ham keltirmasdi.

— Salvatorning dargohi g'aroyibotlarga to'la. Xuddi hayvonot bog'i. — Shunday deb, Kristo ko'rgan-kechirganlarini birma-bir hikoya qila boshladi.

— Darhaqiqat, juda qiziq, — dedi Zurita sigara tortib, — ammo sen eng asosiy narsani — «iblis»ni ko'rmabsan. Bundan keyin nima qilmoqchisan, Kristo?

— Bundan keyinmi? Andga sayohat qilmoqchiman. — Kristo Salvatorning hayvon oviga otlana-yotganini aytib berdi.

— Juda soz! — deb xitob qildi Zurita. — Salvator boradigan joy boshqa ovullardan olisda. Yo'qligidan foydalanib, uning mulkiga bostirib kiramiz-da, «dengiz iblisi»ni qo'lga tushiramiz.